

Buxoro viloyatida Kichik tadbirkorlik


Yanvar-mart
2019 yil

E'tibor bering!

- 2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdag'i ulushi 60,3 %ni tashkil etdi.
- 2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 8,9 birlikni tashkil qiladi.

2019 yilning yanvar-martida 2182 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,8 baravarga ko'p demakdir. Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (41,9 %), sanoat tarmog'ida (23,7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (6,6 %), qurilishda tarmog'ida (8,7 %), yashash va ovqatlanishda (8,6 %), tashish va saqlashda (3,8 %) tashkil etilgan.

2019 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlik	13132	16880	3748
Yangi tashkil etilgan kichik korhona va mikrofirmalar	birlik	762	2182	1420
YaHM	%	67,4	60,3	-7,1
Sanoat	%	23,6	32,7	9,1
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,8	99,4	1,6
Investitsiya	%	15,0	34,7	19,7
Qurilish	%	73,6	79,3	5,7
Savdo	%	84,9	81,0	-3,9
Xizmatlar	%	74,6	70,4	-4,2
Yuk tashish	%	87,3	89,3	2,0
Yuk aylanmasi	%	80,4	83,6	3,2
Yo'lovchi tashish	%	96,5	98,0	1,5
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,5	97,8	1,3
Eksport	%	38,9	66,1	27,2
Import	%	25,6	44,9	19,3


**SHahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona
va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-mart 2018y.	yanvar-mart 2019 y.
Buxoro viloyati	762	2182
Buxoro sh.	248	625
G'ijduvon	57	297
Romitan	85	187
Jondor	36	175
Buxoro	41	134
Shofrikon	43	132
Vobkent	31	121
Qorako'l	44	107
Kogon	51	96
Peshku	47	94
Olot	23	84
Kogon sh	37	83
Qoravulbozor	19	47

2019 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Buxoro shahrida - 625 ta, Romitan tumanida - 187 ta, Buxoro tumanida - 134 ta. Eng past ko'rsatkichni Qoravulbozor tumanida -47 ta,Kogon shaharida - 83 ta va Olot tumanlarida - 84 tani tashkil etgan.

**2019 yil yanvar-mart holatiga yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalarning shahar-tumanlar
bo'yicha ulushi**



2019 yil yanvar-mart holatiga shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Buxoro.sh ga - 28,6 %, Romitan tumani - 8,6 %, G'ijduvon tumani - 13,6 %, Buxoro tumani - 6,1 %, Jondor tumani - 8,0 %, Shofrikon tumani - 6,0 %, Peshko' tumani - 4,3 %, Kogon tumani - 4,4 %, Kogon shahar - 3,8 %, Qorako'l tumani - 4,9 %, Vobkent tumani - 5,6 %, Olot tumani - 3,9 %, eng past ko'rsatkich Qoravulbozor tumanida - 2,2 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-mart 2018 y.	yanvar-mart 2019 y.
Jami	762	2182
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	163	144
Sanoat	140	517
Qurilish	102	190
Savdo	137	914
Tashish va saqlash	28	82
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	66	187
Axborot va aloqa	14	10
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	28	24
Boshqa turdag'i xizmatlar	84	114

2019 yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p tashkil etgan:

Savdoda - 914 ta.;


Sanoatda - 517 ta.;

Qurilishda - 190 ta.;

Yashash va ovqatlanishda - 187 ta.;

Xizmatda - 3891 ta ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar to'g'risida ma'lumot



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar savdoda - 914 ta, Sanoatda - 517 ta, Qurilishda - 190 ta, Qishloq,o'rmon va baliq xo'jaligida - 144 ta, Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda - 187 ta, Tashish va saqlashda - 82 ta, Axborot va aloqada - 10 ta, Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda - 24 ta va Boshqa turdag'i xizmatlarda - 114 tani tashkil etdi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

birlikda

	yanvar- mart 2018 y.	yanvar- mart 2019 y.	farq (+-)
Buxoro sh.	248	625	377
G'ijduvon	57	297	240
Romitan	85	187	102
Jondor	36	175	139
Buxoro	41	134	93
Shofrikon	43	132	89
Vobkent	31	121	90
Qorako'l	44	107	63


2019 yil yanvar-martida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Buxoro shahrida - 377 taga., G'ijduvon tumanida - 240 ta.ga, Romitan tumanida - 102 ta.ga, Jondor tumanida bu ko'rsatkich 139 taga o'sishni tashkil etdi., Buxoro tumanida - 93 taga., Shofirkon tumanida - 89 taga, Vobkent tumanida - 90 taga va Qorako'l tumanida - 63 tani tashkil etdi..

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2019 yilning 1-aprel holatiga kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni(har 1000 aholiga, birlikda) tumanllar va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Buxoro shahrida 20,5 birlikda, Qoravulbozor tumani 16,5 birlikda, Kogon tumanida 11,1 birlikda, Romitan tumanida 9,7 birlikda, Kogon shaharda 9,9 birlikda va Peshko' tumanida 8,0 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 7,4 - 4,9 birlik oralig'ida Buxoro, Jondor, G'ijduvon, Shofrikon, Vobkent, Qorako'l tumanlarida aniqlandi. Olot tumanida 4,7 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda

Tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).




Agar, 2018 yilning 1 aprelda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 7,0 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 8,9 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 1,9 birlikka ko'paydi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga.




Quyida, 2019 yilning yanvar-martida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi - 32,7 %, qurilishda - 79,3 %, investitsiyada - 34,7 %, savdoda - 81,0 %, eksportda - 66,1 %, importda - 44,9 % va xizmatlar sohasidagi - 70,4 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

2019 yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




2019 yilning yanvar-martrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 60,3 % ni tashkil qildi (2018 yilning yanvar-martida 67,4 %). YaHM tarkibida o'sishiga olib kelgan.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining dinamikasi yanvar-mart holatiga, %



Kichik tadbirkorlikninig ulushi (umumiylajmiga nisbatan % da)



**2019 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning
shahar va tumanlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar
Buxoro viloyati	23,6	79,3	70,4
Buxoro shahar	53,7	90,4	55,5
Kogon shahar	12,6	60,8	88,0
Tumanlar			
Olot	36,1	55,8	97,0
Buxoro	52,1	96,5	97,6
Vobkent	100,0	100,0	93,1
G`ijduvon	43,8	100,0	95,0
Kogon	98,3	88,9	90,2
Qorako'l	36,1	86,1	98,9
Qoravulbozor	0,6	8,1	36,6
Peshko'	23,8	100,0	93,9
Romitan	13,9	64,4	95,5
Jondor	26,7	100,0	94,1
Shofirkon	59,4	100,0	93,5

Shahar va tumanlar kesimida sanoat sohasining yuqori ulushini Vobkent (100,0 %), Kogon (98,3 %) va Shofirkon (59,4 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda - Vobkent (100,0 %), G`ijduvon (100,0 %) Peshko' (100,0 %), va Jondor (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Qorako'l (98,9 %), Buxoro (97,6 %), Olot (97,0 %), Romitan (95,5 %), G`ijduvon (95,0 %), va Vobkent (93,1 %) viloyatlari tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan



2019 yilning
yanvar-martida



Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3 441,1 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 23,6%) yoki 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 104,6 %ni tashkil qildi;



530,7 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 34,7 %i) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 117,0 %ni tashkil qildi;



479,4 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 79,3 %) bajarildi va 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 141,1 %ni tashkil qildi;



1214,3 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 70,4 %), 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 105,7 %ni tashkil qildi;



chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 81,0 % yoki 1543,4 mlrd. so`mi (o'sish sur'ati 110,8 %ni tashkil qildi) shakllantirildi;



40,7 mln. AQSh dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 66,1 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2018 yilga nisbatan 21,7 mln. AQSh dollariga yoki 87,6 % ga ko'p;




avtomobil transporti yuk aylanmasining 4,3 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 83,6 %) ko`payishi ta'minlandi;




yo`lovchi aylanmasining esa 2,2 % ga (umumiyligi yo`lovchi aylanmasining 97,8 %) ko`payishi ta'minlandi;

Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %



2019 yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Vobkent tumani - 100,0 %, Kogon tumani - 100,0 %, Peshku tumani - 100,0 %, Romitan tumani - 100,0 %, Buxoro tumani - 79,9%, Buxoro shahar - 66,8 %, G'ijduvon tumani - 58,2 %, Olot tumani - 53,4 %, Shofrikon tumani - 39,5 %, Qorako'l tumani - 27,2 %, Qorovulbozor tumani - 26,3 %, eng past ko'rsat-kichni Jondor tumani - 14,3 % va Kogon shaharida - 3,0 % ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-martda shahar va tumanllar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da



Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (197,4 mlrd.so'm), Kogon (94,4 mlrd.so'm), G'ijduvon (91,8 mlrd.so'm) va Vobkent (90,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Peshko' (20,9 mlrd.so'm) va Qorovulbozor tumanida (9,6 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2019 yil yanvar-mart holatiga jami sanoat maxsulotidagi kichik tadbirkorlikning shahar va tumanlar bo'yicha ulushi, %



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Vobkent tumani (100,0%), Kogon tumani (98,3%), Shofirkon tumani (59,4%), Buxoro shahri (53,7%), Buxoro tumani (52,1%), G'ijduvon tumani (43,8%) va Olot tumani (36,1%). Jondor tumani (26,7%) va Qoravulbozor tumani (0,6%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.


2019 yil yanvar-martida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik



SHahar va tumanlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (449,3 mlrd.so'm), G'ijduvon (272,0 mlrd.so'm), Qorako'l (178,3 mlrd.so'm), Romitan (113,4 mlrd.so'm), va Jondor (96,0 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2019 yil yanvar-martida shaharlar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik



Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Buxoro shahri (119,6 mlrd.so'm), G'ijduvon (69,9 mlrd.so'm), Buxoro (41,2 mlrd.so'm), Peshko` (36,3 mlrd.so'm) va tumanlarida qayd etildi.




2019 yil yanvar- martida shahar va tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Shahar va tumanlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Buxoro shahri (563,7 mlrd.so'm), G'ijduvon (174,0 mlrd.so'm) va Buxoro (61,6 mlrd.so'm), Romitan (54,0 mlrd.so'm) va Kogon shahar (54,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2019 yil I - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 170 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonaları - 38 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 22,4 %), qurilish - 15 (8,8 %), savdo - 66 (38,8 %), xizmatlar sohasi - 35 (20,6 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 16 (9,4 %) tashkil etdi.

**2019 yil I - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan
yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**




Shahar va tumanlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning ulushi Buxoro shahrida - 28,8 %, G'ijduvon tumanida - 15,3 %, Romitan tumanida - 11,8 %, Vobkent tumanida - 6,5 % Jondor va Shofirkon tumankfbida - 5,9 %. Buxoro, Kogon va Peshku tumanlari 4,7 - 4,1 % ni tashkil qildi.

2019 yil I– chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlik




2019 yil I– chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, %



Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 33,4 % iqtisodiy vaziyatni - qulay va 33,3 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida - 45,0 % va 44,0 %, xizmatlar sohasida - 34,3 % va 45,7 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 31,2 % va 25,0 %, sanoatda - 34,3 % va 36,8 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda - 28,9 %, qurilishda - 33,3 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 43,8 %, xizmatlarda - 20,0 % va savdoda - 11,0 %ni tashkil qildi.

**Iqtisodiy vaziyatni baholash
2019 yil I-chorak uchun, %**



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 73,7 % sanoat korxonalari, 75,8 % - savdo, 77,1 % - xizmatlar, 62,4 % - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 66,7 % - qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirdar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Buxoro viloyat Ishbilarmonalik muhiti
kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish
statistikasi bo'limi:**

**Tel: (0371) 230-83-03
(0365) 223-81-96**